



“Shum bola” asarida o'xshatishlarning lingvopoetik tahlili

Toshtemirov Ilhom

Samarqand davlat universiteti

filologiya fakulteti 4-kurs talabsi

Annotatsiya: G'afur G'ulomning “Shum bola” asari adibning boshqa asarlari kabi o'ziga xos tarzda badiiy san'at vositalari bo'lgan troplar, metafora, mubolag'a, istiora hamda afarizmlar bilan to'yingan. Eng e'tiborga molik jihati shundan iboratki, asar o'zidagi maqsad va g'oyalarning ilgari surilishiga asosan yoshlarni odob-axloq, fahmu farosat, hayotda to'g'ri yo'ldan borishga undaydi. Shu bilan birga ochlik va qiyinchilik kunlarida o'zini qanday tutishga o'rgatadi. Ushbu maqolada biz yozuvchining asar tili va undagi personajlarga yuklagan vazifasi va o'z o'rnida asarda qo'llagan badiiy tasvir vositalari o'xshatishlardan qanday foydalanishiga e'tibor qaratamiz. Zero bu hodisa ham yoshlar hayotini to'g'ri yo'lga boshlash ham asar mazmunini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Adib, jarayon, ibora, naqqosh, so'z ustasi, Qoravoy, darbadar, kakku, shir yalang'och, Hoji bobo, ko'sa.

G'afur G'ulom asrga tatigulik asarlarni xalqimizga taqdim etgan zabardast o'zbek yozuvchilaridan biridir. Adibning qariyb 90 yildirki o'zining samimiyligi, xalqimizning boy til xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan „Shum bola” qissasi qo'llardan tushmay kelmoqda. Asar dastlab gazetalarda bosilayotgan vaqtlardayoq xalqning mehrini qozongan va keyingi sonlarini intiqlik bilan kutishgan. Yozuvchi o'xshatishlardan, iboralar va



maqollardan foydalanar ekan voqealar kechimini, muhit va holatning nozik qirralarini juda chiroyli va chin ijodkorga xos mohirlik bilan ochib bera olgan. Bu tasviriyl vositalar o'quvchiga o'sha jarayonda bevosita o'zini tasavvur etishida ulkan vazifani o'taydi.

Yozuvchining mahorati nafaqat syujet, xarakter, voqealar rivojini yarata bilishida balki til xususiyatlaridan, uning nozik tomonlaridan ham ustalik bilan foydalanishida namoyon bo'ladi. Tilning bu xususiyatlari adibning jarayonga va muhitga bo'lgan qarashlarini, fikrning ijobiy yoki salbiyligini birgina o'xshatish yoki ibora yordamida qahramonlarning portretini chiza bilishida, ularning ichki dunyosini ochib berishida kuzatiladi. Adib yaratuvchan, xayolot dunyosi boy bo'lishi, oddiy xalq e'tibor bermagan jihatlarga ijodkorona yondoshuvi hamda yo'qdan bor qila oladigan iste'dod egasi bo'lishi kerak. G'afur G'ulom yuqoridagi sifatlarni o'zida jamlagan buyuk so'z ustasi edi. Ijodkor o'zi tomonidan yaratilgan va umumxalq so'zlashuvida mavjud o'xshatishlardan unumli foydalangan. So'z ustasining xalqona birliklardan foydalanganligi asarning o'qimishli bo'lishini taminlaydi. Asarni Said Ahmadning Chexovga bergan quyidagi ta'rifi bilan ifodalash mumkin:

”So'zni u xuddi mix qilib qoqib qo'ygandek. Ombir bilan ham sug'urib ololmaysiz. Qopqog'i bilan qoqib ombir tishlamaydigan qilib qo'ygan”. Darhaqiqat, ushbu tariflar Chexovga qanchalik mos bo'lsa, o'zbek adabiyotida Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Asqad Muxtor, Maqsud Shayxzoda kabi adabiyot vakillarimiz qatorida G'afur G'ulomga ham tegishlidir. Bizningcha, asar tilining yengil o'qilishida so'zlarning joy-joyiga terilishi bilan birgalikda individuallik, o'ziga xoslikning ham o'rni bor. Fikrimiz isboti sifatida asarda keltirilgan bir qancha o'xshatishlarga to'xtalib o'tamiz.

Qoravoy tilidan G'afur G'ulom qishloq ko'chalaridagi chiroqlar haqida so'zlar ekan ularni quyidagicha tasvirlaydi: “Bu ko'cha fonuslarining yorug'i uncha bo'lmaydi. Uzoqdan qaragan kishiga qorong'idagi mushukning ko'ziga o'xshab yiltirab ko'rinadi”. Bu



yerda yozuvchi fonuslarning yorug'ligini kechasi yurgan mushukning ko'ziga o'xshatish orqali buni juda o'rinli qo'llagan ya'ni yonib turgan bu nuqta atrofga hech qanday yorug'lik taratmasligi nazarda tutilmoqda.

Yana bir vaziyatni, Qoravoy tandirga tushib ketgan vaqtni eslasak, u xayol surib yotar ekan bir kishi kelgani eshitiladi. "Men shu xayollarda ekanman, "g'iyq" etib eshik ochildi-da bir kishi oyoq uchi bilan yurib keldi. Men sekin-sekin go'yo darchaning pardasini tortganday, loyтуvoqni ustimga yopdim"

Darchaga tortilgan pardaning vazifasi tashqarida yurgan begona ko'zlardan uy ichini pana qilib, saqlamoqlik hisoblanadi.

Bu yerda ham loyтуvoq parda vazifasida Qoravoyni begona ko'zlardan pana qilib yashirish vazifasini o'tamoqda.

Endi yolg'onlari sababli Sariboy bo'lisnikidan haydalgan chog'dagi Qoravoyning aytgan so'zlarini tinglasak: "Yana o'sha darbadarlik, yana o'sha makonsizlik balosi. Qo'noqdan ajragan kakku bolasiday, qo'narga shox-butoqsiz, Kalasdan yuqoriroq tomon o'rlab ketar edim".

Qahramonimizning holati kakkuga bejiz o'xshtilmagan. Kakku qushi o'zi in qurmasdan boshqa qushlarning iniga tuxum qo'yadigan o'rmon qushi hisoblanadi.

Qahramonimiz ham o'z uyidan chiqqanidan buyon kakkudan farqi qolmadi hisob. Hali Sariboy bo'lisnikida, hali takyaxonada, hali g'assollikda uni uchratamiz..

Omon bilan Qoravoy qolgan qo'ylarni bozorga olib kelib, qo'shoqlashga buyirilgandagi holati e'tiborni tortadi: "Qo'yni qistov bilan bozorga yetkazdik. Boy qo'shoqlashga buyurdi. Har ikkovimizning ham yuragimiz dard tekkan terak yaprog'day qaltirab turibdi". Joyi kelganda G'afur G'ulomning shoir ekanligini ham eslab o'tish kerak. "Dard tekkan terak yaprog'iday qaltiramoq" o'ziga xos metaforik o'xshatish. Bu kabi



tasvirlar asarda juda ko'p o'rinda uchraydi. Ularni qisqa-qisqa ko'rib o'tishga harakat qilamiz.

Omondan ajragan Qoravoy onasining yoniga hech vaqosiz qaytish holatini ko'rsak: "Oilamizga – onamning oldiga boray desam ust-boshim yupun, oyog'im yalang, hammomga tushgan bo'taloqday shir yalang'ochman".

Bu ibora qandaydir noxush holatga tushib, zaiflashib, himoyasiz bo'lib qolganini ifodalaydi. "Shir yalong'och" birikmasida esa, "shir " so'zi yalong'ochlikning o'ta kuchli ekanligini ifodalaydi.

Shunday qilib bu ibora kuchli bir bolaning zaiflashib qolganini ifodalaydi.

„Hoji bobo“ Qoravoyga pul berar ekan shunday deb qattiq tayinlaydi: “Ma, bolam, o'ynab kel, barvaqt qayt. Boqqolning maymunidek kim ko'ringanga ajuva bo'lib yurma, pochta chining otidek har bir do'konning oldida to'xtab, ag'rayma, qassoblikka kirib qolgan begona itdek ko'ringan bilan yoqalashma”. Har ikki gapining birida maqol qo'shadigan “Hoji bobo” bolakayning holatlarini nimalarga o'xshatmaydi-ya, asti qo'yaverasiz. Qo'llanilgan o'xshamas o'xshatishlar asarning mantiqan kuchayishiga xizmat qilib turibdi.

Nizomiddin Mahmudov, Xudoyberdiyeva o'zining „O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati“da o'xshatishga quyidagicha ta'rif beradi: “...o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qiymatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligini taminlashga xizmat qiladi”. Muallif o'xshatishlarning 2 turini farqlaydi.

- a) Umumxalq o'xshatishlari (turg'un o'xshatishlar);
- b) Individual – muallif o'xshatishlari (erkin o'xshatishlar) .

Turg'un o'xshatishning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs



tomonidan qo'llangan bo'lsada, vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq leksionidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi.

Misol tariqasida Qoravoy va Ubayning ko'sa maddoh yig'inidagi aytilgan o'xshatishi e'tiborni tortadi: "Men ko'sa maddohning pul yig'ish to'g'risidagi nayranglarini Ubayga tushintirib bermoqda edim, birdan ko'sa maddohning ko'zi biz tomonga tushib qoldi shekilli:

- Hoy qalandar, hoy birodari oliy, ana shu ikki beadab bachchalarni marakadan olib chiqing, halol oshga tushgan pashsha bo'lmay o'lsin" – deb qoldi.

Ushbu o'xshatish professor Nizomiddin Mahmudovning izohli lug'atida "oshga tushgan pashshaday" shaklida berilgan "Bevaqt, noo'rin va ortiqcha bo'lib, biron davraga, davradagilarning istagiga nomuvofiq kelmoq" monosida beriladi. Haqiqatda esa ko'sa maddoh naznida bu sarguzashttalab ikki „pashsha" ortiqcha edi.

Erkin o'xshatishlar muallifning o'ziga xos original o'xshatishi bo'lib, u yozuvchining mahoratini belgilaydi. Yuqorida takidlanganidek, bu o'xshatishlar jonli nutqqa qanchalik mosligiga qarab xalq leksionidan joy olib boraveradi. G'afur G'ulomning bunday zargarona birliklari asarda yetarlicha topiladi. Quyidagilar shular jumlasidan:

"Xumga tushgan arining ovoziday g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gapirishganlari eshitilar edi". Bu yerda Qoravoy tandirga tushib ketgan vaqtda erkak ayolning suhbatini tasvirlanmoqda. „Xumga tushgan arining ovoziday g'o'ng'ir-g'o'ng'ir" ovozning kelishi tasvirida ijodkorga xos kreativlik, eshitilayotgan tovushga bo'lgan o'ziga xos munosabatning shohidi bo'lamiz. Bundan tashqari o'xshatish orqali yozuvchi jarayon qatnashchilarining holatini, suhbatdoshlarning diydorlashuvi mahfiylikini ham ochib bera olgan. Ularning ovozi shunchalar past ediki, shundoqqina yonginasida turgan qahramonimizning qulog'iga arining g'o'ng'irlashidek tushunarsiz tovushlar keladi. G'o'ng'irlash orqali faqatgina ming'irlash,



mahviy uchrashuv emas balki so'z ustasining voqealar kesimida sodir bo'layotgan bu jarayonga salbiy munosabatdaligi ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Echkisiz qolgan cho'ponlar nimalar qilmaydi-ya o'ziyam, echki bo'lib maraydi, echki bo'lib oldinda yuradi,. Yangi tug'ilgan qo'zichoqni yetaklab birinchi suvdan o'tadi bularning barchsi o'quvchining yuzida beixtiyor tabassum uyg'otadi. Xuddi shunday qo'ylarning daryodan suzib o'tishi tasviri ham adibning nazaridan chetda qolmagan.

“... qo'rqqoq qo'ylarning orqasidan itarib suvga tushirar edim. Qo'ylar xuddi sutga tushgan sichqonday boshlarini ko'tarib suzar edilar” deya podaning daryodan o'tishi tasvirlanmoqda. Bunda shunchaki qo'ylar suzib o'tyapti desa ham bo'lar edi, lekin bu chin yozuvchi meniga xos xususiyat emas. Yuqorida aytilganidek, adib oddiy insonlardek, shunchaki bir voqea-hodisa emas, holatga ijodkor ko'zi bilan qarashi lozim. Tasavvur qiling, duradgorning qo'lida hali qo'l tegmagan, hech yeri sayqallanmagan yog'och turibdi. Ishning so'ngida yog'ochdan qanday san'at asari chiqishi, unga tushirilgan naqshlarning betakror go'zalligi yoki ko'rimsizligi, inson ko'rganda ko'zning quvonishi yoki essiz shunday yog'och deyilishi yolg'iz duradgorning, naqqoshning mahoratiga bog'liq bo'lganidek, til naqqoshining ya'ni, ijodkorning oldida ham xuddi shunday ulkan vazifa turadi. Ya'niki, adibning ko'z o'ngida sodir bo'layotgan yoki gavdalangan voqea-hodisalar yog'och, predmet, syujet vazifasini o'taydi. Tushirilgan naqshlar esa til birliklari, tilning o'ziga xos xususiyatlari bo'lsa, go'zal naqshlarni o'zida jilolagan naqqoshning san'at asari yozuvchining mahoratini o'zida jamlagan, mehnatlarining mahsuli bo'lmish – kitobidir. Asarning qanday chiqishi, xalqning mehrini qozonishi, jamiyatning olqishiga sazovor bo'lishi – buning barchasi duradgorning mohoratiga bog'liq, albatta. G'afur G'ulom ham shunday duradgorlardan biri edi. Duradgor bo'lsa ham asrlar mobaynida turadigan asarni yaratib, naqsh sola olgan naqqosh edi desak, mubolag'a bo'lmaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom "Shum bola" qissasi. -T.; "Yangi nashr". 2019
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. -T.; "Manaviyat". 2013. -320
3. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. -T.; G'afur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi. 2012. -153